



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yilida 10-sinf I yarim
yillik uchun O'zbekiston tarixi fanidan*

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 10-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan I yarim yillik taqvim mavzu rejasi

| № | O‘tiladigan mavzular rejasi | Nazariy soat | Dars o‘tkazish muddati | Dars o‘tkazilgan sana |
|-----|---|--------------|------------------------|-----------------------|
| 1. | Kirish | 1 | | |
| 2. | Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol | 1 | | |
| 3. | Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga ekspansiyasi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi | 1 | | |
| 4. | Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylanishi | 1 | | |
| 5. | Turkiston o‘lkasida siyosiy-ma’muriy boshqaruvi tizimi (1867–1917 yy.) | 1 | | |
| 6. | Turkistonda Rossiya imperiyasiga qarshi milliy-ozodlik harakati | 1 | | |
| 7. | Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta’siri | 1 | | |
| 8. | Turkistonda 1916-yilgi qo‘zg‘olonning | 1 | | |
| 9. | BSB – 1. Amaliy topshiriq (50 ball) | 1 | | |
| 10. | XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Buxoro amirligi | 1 | | |
| 11. | XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligi | 1 | | |
| 12. | XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida qoraqalpoqlar madaniyati | 1 | | |
| 13. | Turkistonda jadidchilik harakati | 1 | | |
| 14. | Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati | 1 | | |
| 15. | CHSB – 1. (40 ball) | 1 | | |
| 16. | Turkistonda ilm-fan va madaniyat. | 1 | | |

| | | | |
|--------------|--|--|--|
| Sana: | | | |
| Sinf: | | | |

Mavzu: Kirish

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: darsda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 90-yillariga qadar sodir bo'lgan voqealarni o'rganish. Bu davr Vatanimiz tarixining eng murakkab va ziddiyatli yillaridir. Tariximizni o'rganish mobaynida, qalblarida faxr va iftixor tuyg'ularini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo'jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo'lgan voqealar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg'otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, davr bilan dialogga kirishish, ilmiy muloqotni tashkil etish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish; muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z nuqtai nazarini asoslash, himoya qilish va jamoaviy qarorlar qabul qilish; muloqot jarayonida o'zining his-tuyg'ularini boshqarish, nizoli vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; voqea-hodisalarga nisbatan ogohlik va hushyorlik bilan munosabatda bo'lish, tashabbus ko'rsatish;

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

| № | Bo'limlar | Vaqt |
|-------------|---|------------------|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Qo‘lingizdagi O‘zbekiston tarixi darsligi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 90-yillariga qadar sodir bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Bu davr Vatanimiz tarixining eng murakkab va ziddiyatli yillaridir. Mazkur darslik Vatanimiz tarixida yo‘qotishlar va talafotlarga to‘la bo‘lgan, shuningdek, ota-bobolarimizning yurt ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan qahramonona kurashlari hamda o‘zbek xalqining bunyodkorlik faoliyati va fidokorona mehnatlarini o‘z ichiga olgan davrlar haqida hikoya qiladi. Tarix saboqlari bugungi kunda ham bizni hushyorlikka undaydi. Ilmsizlik, yangilikka intilmaslik, jahon hamjamiyatidan uzilib qolishning oqibatlarini tarixiy misollar orqali yoritilgan. Shu ma‘noda bugungi kunda mamlakatimizda davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ta‘lim sohasini rivojlantirishdir.«...Yoshlikdan ilmni qunt bilan o‘rganish lozimligini aytib, «Yoshlikda egallangan bilim toshga o‘yilgan naqshdur», «Ong yo‘q joyda jasorat bo‘lmaydi», «Bu dunyoda hech narsa tan-sog‘liqqa yetmas» kabi shiorlarni ko‘p eshitar edik. Milliy tarix darslaridan birida shunday deganlar: «Insonlar o‘z hayotlarini ongli ravishda tushunib turishlari uchun dunyo ilmlari ichida boshqalardan ko‘ra tarix ilmiga hojatlari ayniqsa ko‘pdur. Shuning uchun har davrning dono olimlari tarafidan bu to‘g‘rida bek (ko‘p) kitoblar yozilmish ekandur. Tarix demak, o‘quvchilarning ko‘z oldilariga qo‘yilgan bir ko‘zgu kabi bo‘lib, unga qaragan kishilar esa yuz-ko‘zlariga yuqqan yomon narsalarni ko‘rar ekanlar, albatta, undan o‘zlarini tozalaydilar. Shunga o‘xshash, o‘tmishdagi ota-bobolarning oynaklarini keyingi bolalari qo‘llariga olib qarasarlar, o‘zlarining kim ekanliklarini, endi kim bo‘lg‘onliklarini shu ko‘zguna ochi ko‘radilar. Mehribon ona Vatani bosqinchi oyoqlar ostida deysalib, ingrab yotqonlig‘ini ko‘rgach, uning sabablarini tekshirishga kirishadilar. Ongsizlik o‘lim uyqusida yotgan bir millatni uyg‘otish uchun o‘tmishdagi ota-bobolarining shonlik tarixini bilishdan ortiq narsa yo‘qdir. Bu ilmdan kutilgan asosiy maqsadlar bir davlat qurilgandan so‘ngra, u qaysi ishlar bilan taraqqiy topib rivojlanmishdur, yoki inqirozga uchrab zavol topishi nima sababdan bo‘lishidir. Chunki, dunyoda o‘tgan, yo o‘tmoqda bo‘lgan yaxshi-yomon ishlar paydo bo‘lishining, albatta, sabablari bordur....»



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Abdurauf Fitratning tarix fani haqida bildirgan fikrlaridagi «taraqqiyot va tanazzul» degan tushunchalariga misol keltiring.

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

| | | | | |
|--------------|--|--|--|--|
| Sana: | | | | |
| Sinf: | | | | |

Mavzu: Rossiya imperiyasi bosqini arafasida buxoro amirligi, qo‘qon va xiva xonliklaridagi ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy ahvol.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: darsda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 90-yillariga qadar sodir bo‘lgan voqealarni o‘rganish. Bu davr Vatanimiz tarixining eng murakkab va ziddiyatli yillaridir. Tariximizni o‘rganish mobaynida, qalblarida faxr va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo‘jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo‘lgan voqealar mustaqil ishlashga o‘rgatish, o‘quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg‘otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, o‘z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: kompetensiya

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish; badiiy va san‘at asarlarini tushunish, amaliy faoliyatda foydalanish va yaratish; orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me‘yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish, aksiologik fikrlash, aksiologik yo‘nalganlik va qadriyatli munosabatni o‘z-o‘zida qaror toptirish; o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqning tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrash, ta‘lim muassasasida va jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e‘lon qilinadi.

Darsning borishi:

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|-------------|---|------------------|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Buxoro amirligichegaralari janubda Amudaryoning chap qirg'og'idan boshlanib shimolda Sirdaryogacha, sharqda Pomir tog'laridan g'arbda Xiva xonligi yerlarigacha cho'zilgan. Davlat hududi XIX asrning o'rtalarida Eron, Afg'oniston, Qo'qon va Xiva xonliklari, qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo'lgan. Amirlikning markaziy qismi Buxoro va Samarqand shaharlari joylashgan Zarafshon vodiysi hisoblangan. Shu bilan birga hududiy jihatdan viloyat va tumanlarga bo'linib, ularni amir tomonidan tayinlangan beklar boshqargan. Amirlik tarkibida 40 ta viloyat bo'lgan. Buxoro amirligining aholisi soni 2 million atrofida bo'lgan.

Xiva xonligi XIX asrning ikkinchi yarmida janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo'lgan.

Xonlikning ma'muriy markazi Xiva shahri hisoblangan. Xiva xonligida Xiva, Kat, Yangi Urganch, Hazorasp, Qo'ng'iro't, Xo'jayli kabi beklarning markazlari bor edi. Xiva xonligi 18 ta beklilik, 2 ta noiblikka bo'lingan va ularni xon tomonidan tayinlangan beklar va to'ralar boshqargan.

Qo'qon xonligi. XVIII asrning boshlarida Buxoro amirligidan Farg'ona vodiysi va Sirdaryoning quyi qismigacha bo'lgan hududlar ajrab, mustaqil davlat – Qo'qon xonligi tashkil topadi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi, shimolda Qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo'lgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan. Xonlikning hududi Buxoro amirligi va Xiva xonliklaridan farqli o'laroq, sersuv daryolar, so'lim vodiylar, serhosil yerlarga boy bo'lgan. Qo'qon xonligida aholi soni 3 millionga yaqin bo'lgan.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. XIX asrga kelib O'rta Osiyo hududlari Rossiya imperiyasi uchun qanday ahamiyatga ega bo'lgan?
2. XIX asr o'rtalarida jahondagi yetakchi davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy, harbiy-siyosiy holati qanday darajada bo'lgan?
3. O'rta Osiyodagi Rossiya–Angliya raqobatida Rossiya imperiyasi imkoniyatlarining yuqoriligi nimalarda namoyon bo'ldi?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

34 listdan iborat 10-sinf O'zbekiston tarixi fanidan I yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**